


Termiz shahridagi xususiy maktab muammolari joyiga chiqib o'rganildi

Image not found or type unknown



Termiz shahridagi xususiy maktab muammolari joyiga chiqib o'rganildi

Termiz shahrida "Boysun barakat imkon" MCHJ tomonidan 2019 yildan buyon "Genius Academy Termez" nodavlat umumta'lim maktabi faoliyat yuritib kelmoqda.

Hozirgi kunda maktabda 370 nafar, shundan, boshlang'ich sinfdan 214 nafar, yuqori

sinfda 156 nafar o'quvchi tahsil oladi. Maktabda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning 3 nafari 1-toifali, 9 nafari 2-toifali, 4 nafar o'qituvchida "CEFR", 3 nafari "IELTS" sertifikatlari mavjud.

Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov mazkur maktabda bo'lib, yaratilgan sharoitlar hamda mashg'ulotlarning tashkil etilishi bilan tanishdi. Maktab muassislari bilan shariat davomida ularning mavjud muammolari o'rganildi. Jumladan, tadbirkorlarning murojatiga asosan maktabda sport zal qurish uchun bankdan imtiyozli kredit olishida ko'maklashish bo'yicha mas'ullarga ko'rsatmalar berildi.






Image not found or type unknown








Image not found or type unknown

